SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - iyul 172-9-132-Q/22 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari, markaziy ko‘chalarida fuqarolar hamda transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022-yil 11-fevral kuni “Xavfsizlik va ravon yo‘l tamoyili asosida yo‘llarda inson xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 13-maydagi 10/6-112-sonli xati, O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan, Yangiyer shahar hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasiniga asosan, **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2022-yil 13-maydagi 10/6-112-sonli xati inobatga olinsin.

2. Shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy

ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish, Gulshan ko’chasida transport vositalari harakatini tartibga solish, tez tibbiy yordam va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan vazifalarni bajaruvchi transport vositalarini to’siqsiz harakatlanishi uchun kocha bo’ylab 6 ta joyga “Yo’l harakati qoidalari”ning 3.27-“to’xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

3. Shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Xudoyberganov) va Xovos tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (Sh.Sherqulov)ga shahar hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi matbuot kotibi (A.Abduraxmonov) mazkur qarorni shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Mirzayev hamda shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i B.Xudoyberganov zimmalariga yuklatilsin.

Yangiyer shahar hokimi **I.Xo'jayev**